

O`ZBEKISTONNING 1940-1985-YILLARDAGI TARIXI YOXUD SSSR QOLDIRGAN DOG`LAR

Nabiev Xasan Baxtiyorzoda

*Guliston Davlat Pedagogika instituti, Gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat
fakulteti, Tarix yo`nalishin 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O`zbekiston xalqining urush yillaridagi matonati, ruslarning paxtachilik siyosati, nohaq qatag`on qilingan ziyolilar ishi. Mirzacho`lning o`zlashtirilishi va boshqa kommunistik siyosatlari haqida yoritib berilgan.*

Kalit so`zlar: *O`zbekiston, kolxoz, Mirzacho`l, paxtachilik, qatag`onchilik, Sovet,*

Nuriddin Muhitdinov.

Fashistlar Germaniyasi Yevropaning harbiy, iqtisodiy resuslarini qo`lga kiritib bo`lgach, 1941-yil 22-iyun yakshanba kuni tong saharda hujum qilmaslik to`g`risidagi shartnomani buzib, urush e`lon qilmasdan Sovet Ittifoqiga xoyinona hujum boshladi. SSSR tarkibidagi barcha respublikalar, shu jumladan, O`zbekiston ham urush girdobiga tortildi. Urushning dastlabki kunlaridayoq O`zbekistonning moddiy va ma`naviy kuchlarini safarbar etishga kirishildi. 1941-yilda O`zbekiston aholisi jami 6,5 million kishini tashkil etgan, ularning yarmini bolalar va keksalar tashkil etgan bo`lsa, yaroqli odamlarimizning 50-60 foizi, aniqrog`i 1433230 kishi urushga safarbar bo`lgan. (Qamariddin Usmonov, Mahmudjon Sodiqov. O`zbekiston tarix Toshkent 2005) (209-bet). Urush yillarida O`zbekistonga yuzga yaqin sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metal ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika va mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbob uskunalari ko`chirib keltirildi, zudlik bilan barpo etilgan binolarga joylashtirildi va montaj qilindi. O`zbek xalqi urushning dastlabki yillarida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldova, Boltiqbo`yi respublikalaridan ko`chirilib keltirilgan kishilarni, shu jumladan yetim bolalarni o`z bag`riga oldi. (210-bet).

Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o`rtog`i Bahri Akromova turli millatga mansub 14 nafar bolani o`z tarbiyasiga oldi. Urushdan o`g`ir yarador bo`lib qaytgan Kattaqo`rg`onlik Hamid Samadov 13 nafar, umr yo`ldoshini frontga kuzatgan Samarqandlik Fotima Qosimova 10 nafar bolani asrab oldi. (S. Tillabayev, D. Kenjayev O`zbekiston tarix Toshkent 2022) (146-bet). Urushning dastlabki kunlarida respublika aholisidan 30 million so`mlik miqdorda pul, obligasiya va qimmatbaho buyumlar to`plandi. O`zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jamg`armasiga 649,9 mln so`m pul va 55 kg ga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar topshirdi. Bu jamg`arma hisobiga tank kolonnalari, aviasiya eskadrilyalari, bronepoyezdlar qurilib frontga jo`natildi. Respublika aholisi urushning dastlabki olti oyi mobaynida frontga 421,5 mingta turli issiq kiyimlar yubordi. Jangchilar uchun to`plangan buyumlar, oziq-ovqatlarni O`zSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi Y. Oxunboboev (1885-1943) rahbarligidagi delagasiya frontning

oldingi marralariga yetkazib berdi.(R.H.Murtazaeva.O`zbekiston tarix Toshkent 2003)(479-bet).

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq boshlangan qishloq aholisini yerdan mahrum qilish jarayoni urushdan keyin ham davom etdi.1946-yil sentyabrda VKP(b) MQ va SSSR hukumatining “kolxozlarda qishloq xo`jalik ustavining buzilishini tugatish choralari to`g`risida” qarori e`lon qilindi.Kolxozlar manfaatlarini himoya qilish bayrog`i ostida respublika qishloqlarida istiqomat qilayotgan 50 ming kolxozchi oilasi qo`lidagi tomorqa yerlaridan 25 ming gektari ustavda belgilanganidan “ORTIQCHA” deb tortib olindi.Kolxoz hududida yashagan,ammo unga a`zo bo`lmagan 20 ming xo`jalikning go`yo, “QONUNGA XILOF” ravishda egallagan2,5 ming gektar yerlari ham tortib olindi.Qishloq aholisini yerdan mahrum etish jarayoni 50-yillarda ham davom etdi.(Qamariddin Usmonov,Mahmudjon Sodiqov. O`zbekiston tarix Toshkent 2005)(204-bet).O`zbekiston iqtisodiyotini bir tomonlama rivojlantirish,uni mamlakatni asosiy paxta bazasiga aylantirish,bu hududda paxta yakkahokimligini kuchaytirish-Ittifoq hukmdorlarining bosh maqsadiga aylandi.SSSR XKS va VKP(b) MQning 1945-yil 15-iyuldagi “O`zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish choralari to`g`risida”gi va SSSR XKSning 1946-yil 2-fevraldagi “1946-1953 yillarda O`zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to`g`risida” qabul qilgan qarorlari ham shu maqsadga qaratilgan edi.Sobiq KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1956-yilgi “paxta yetishtirishni ko`paytirish uchun O`zbekiston SSR va Qozog`iston SSRdagi Mirzacho`l qo`riq yerlarini sug`orish to`g`risida”gi,1958-yilgi “Ozbekiston SSR,Qozog`iston SSR va Tojikiston SSRdagi Mirzacho`lni o`zlashtirish ishlarini yanada kengaytirish va jadallashtirish to`g`risida”gi qarorlariga asosan Mirzacho`lda kata maydonlarda qo`riq yerlarni o`zlashtirish ishlari olib borildi.1956-65-yillarda Mirzacho`lda 84 ming gektar yangi yer o`zlashtirildi.O`zbekiston SSRda 1777 ta mayda kolxozlar o`rniga 752 ta yirik kolxozlar tashkil etildi.Janubiy Mirzacho`l kanali qurildi.1957-yilda Yangiyer va 1961-yilda Guliston shaharlari vujudga keldi.1963-yil 16-fevralda markazi Guliston shahri bo`lgan Sirdaryo viloyati tashkil etildi.(178-bet).Buxoro viloyatida 1963-yilda Amu-Qorako`l mashina-kanali,1965-yilda Amu-Buxoro mashina-kanali qurilib foydalanishga topshirildi.1973-yilda Jizzax viloyati tashkil etildi.Jizzax cho`lida 70 ming gektardan ko`proq yangi yerlar o`zlashtirildi.O`zlashtirilgan yerlarda Mirzacho`l (1967), Do`stlik (1970), Zafarobod (1973), Arnasoy (1977) tumanlari tashkil etildi.(179-bet).

1958-yil 3-sentyabrda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga poydevor qo`yilishi bilan Navoiy shahriga asos solindi.1982-yil aprelida maxsus Navoiy viloyati tashkil etildi.Muruntov oltin koni 1961-yil ishga tushurilib,dastlabki sof quyma oltin (999,9 probali) 1963-yil tayyorlangan.1956-yil Buxoro viloyatida dunyodagi eng yirik va ulkan “Gazli” neft-gaz konining topilishi O`zbekistonda tabiiy gaz qazib chiqarishning tez sur`atlarda rivojlanishiga asos bo`ldi.Tabiiy gaz qazib olish sur`atlari misli ko`rilmagan darajada oshirildi.Ittifoq hukumatining O`zbekistonda gaz ishlab chiqarishni oshirishdan maqsadi uni RSFSRning sanoat markazlariga ko`proq tashib ketish edi.(Qahramon Rajabov,Akbar Zamonov. O`zbekiston tarix Toshkent 2017)(121-122 betlar).

“O`zbekiston ziyolilari qatag`on qilinishining yangi bosqichi”

Urush tugagandan keyin oradan ko`p o`tmay O`zbekiston SSR bo`ylab yana bir yalpi qatag`on to`lqini yelip o`tdi. 20 asr 40-yillari oxiri va 50-yillari boshlaridagi qatag`onlar asosan madaniyat va fan arboblari qarshi qaratildi. O`zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti byurosi 1950-yil 1-sentyabrda “O`zbekiston SSR Fanlar akademiyasining ishi to`g`risida”gi masalani ko`rib, akademiya olimlaridan sharqshunos va tarixchi Abusamad Boboxo`jayev, adabiyotshunos va faylasuf Vohid Zohidov, iqtisodchi Olim Aminov, tilshunos olim Usmonov va boshqalarni nohaq ravishda qoraladi. 1952-yil fevralda O`zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining mafkuraviy masalalarga bag`ishlangan 10 plenumi (yalpi majlis) bo`lib o`tdi. Unda O`zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretari Amin Niyozov “Respublikada mafkuraviy ishning ahvoli va uni yaxshilash choralari to`g`risida” ma`ruza qildi. Ma`ruzada O`zbekiston ziyolilaridan bir guruhi (yozuvchilar, olimlar, shoirlar va b) noto`g`ri ravishda millatchilikda aylandi. O`zbek xalqining qatag`on qilingan bu vakillarining asarlari va “ALPOMISH” dostonini o`qish taqiqlandi. Mazkur plenum va unda qabul qilingan qarorlar O`zbekistonning ma`naviy hayotiga kuchli zarba bo`lib tushdi. Ijodkor ziyolilardan Said Ahmad, Shukrullo, Mirzakalon Ismoilov, Shuhrat, Maqsud Shayxzoda, Mirkarim Osim, Ne`mat Toshpo`lat, Yong`in Mirzo, Hamid Sulaymonov, Muhiddin, Qoriyoqubov va boshqalar (12 kishi) “Sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati” olib borganlikda ayblanib, 1951-yilda qamoqqa olindi va 25 yilga ozodlikdan mahrum etildi. Ular “xalqlar otasi” va “xalqlar dohiysi” I.V. Stalin vafot etganidan bir necha yil o`tib, 1955-yili sovet rejimi tomonidan oqlanib, qamoqdan ozod qilindi va O`zbekistonga qaytishdi. O`sha paytda o`zbek xalqining faxri hisoblangan Oybek qatag`onga uchradi. (108-109-betlar).

Amin Niyozov davrida O`zbekiston ziyolilariga nisbatan qatag`onchilik siyosati olib borildi. Nuriddin Muhitdinov o`zbek ziyolilari oqlanishida tashabbuskorlik ko`rsatdi. (111-bet).

Xulosa: Aynan shu davrda ruslar O`zbekistonda paxtachilikga juda katta e`tibor berishdi. Buning natijasida Orol fojeasi ro`y berdi. Qatag`onchilikning yangi to`lqinini uyushturishdi. O`zbekistonning tabiiy boyliklarini o`z yurtlariga tashib ketishdi va o`z maqsadlari yo`lida foydalanishdi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qamariddin Usmonov, Mahmudjon Sodiqov. O`zbekiston tarix Toshkent 2005.
2. S. Tillabayev, D. Kenjayev. O`zbekiston tarix Toshkent 2022.
3. R. H. Murtazaeva. O`zbekiston tarix Toshkent 2003.
4. Qahramon Rajabov, Akbar Zamonov. O`zbekiston tarix Toshkent 2017.